

MAG'OKI ATTOR - QADIMGI OTASHPARASTLAR IBODATXONASI**Jumayeva Nilufar Ahmatova****Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi****Sharipova Parizod Quvvatjon qizi****Buxoro davlat universiteti talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.11204168>**

Annotatsiya: Maqolada qadimgi inshootlardan biri bo'lmish Mag'oki Attor inshootini qurilishi hamda o'zgartirilish tarixi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek shu davrda Buxorodagi vaziyat haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Buxoroyi sharifda qad rostlagan har bir obida, har bir nodir yodgorlik ko'hna zaminning noyob arxitekturasini, boy qurilish tajribasi, yuksak madaniyati, ilm-u fani, falsafa va din ravnaqidan darak beradi. Mag'oki Attor inshooti ham shulardan biridir.

O'rta Osiyoda eng qadimiy shaharlardan biri-Buxoroning tarixiy o'tmishi va hozirgi davri ko'plab tarixiy manba va adabiyotlarda aksini topgan. Hozirgi kunga qadar yetib kelgan inshootlarni ko'rib esa bunga yana bir bor ishonasiz. Shu inshootlardan eng qadimgisi esa Mag'oki Attor masjidi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Mag'oki Attor, ibodatxona, bozor, peshtoq, shahar, arxitektura, inshoot, arab, Anaxita, sopol, Toqi Sarrofon, Ro'dizar, zilzila, me'morlik, masjid, devor, haykalchalar, dehqonlar.

Аннотация: В статье рассматривается история строительства и модификации сооружения Магоки Аттор, которое является одним из древних сооружений. Также была дана краткая информация о ситуации в Бухаре в этот период. Каждый памятник, каждый редкий памятник, воздвигнутый в Бухаре Шарифе, свидетельствует об уникальной архитектуре старой земли, богатом строительном опыте, высокой культуре, развитии науки, философии и религии. Предприятие Magoki Attar – одно из них.

Историческое прошлое и настоящее Бухары, одного из древнейших городов Центральной Азии, отражено во многих исторических источниках и литературе. Увидев постройки, дошедшие до наших дней, вы еще раз в это поверите. Самым старым из этих сооружений является мечеть Магоки Аттар.

Ключевые слова: Бухара, Магоки Аттар, храм, базар, фасад, город, архитектура, строение, араб, Анахита, керамика, Токи Саррофон, Родизар, землетрясение, архитектура, мечеть, стена, статуэтки, крестьяне.

Abstract: The article discusses the history of the construction and modification of the Mag'oki Attor structure, which is one of the ancient structures. Brief information about the situation in Bukhara during this period was also given. Every monument, every rare monument erected in Bukhara Sharif shows the unique architecture of the old land, rich construction experience, high culture, science, philosophy and religion development. Magoki Attar facility is one of them.

The historical past and present of Bukhara, one of the oldest cities in Central Asia, is reflected in many historical sources and literature. Seeing the constructions that have reached the present day, you will believe it once again. The oldest of these structures is Mag'oki Attar mosque.

Keywords: Bukhara, Magoki Attar, temple, bazaar, facade, city, architecture, structure, Arab, Anakhita, ceramic, Toki Sarrofon, Rodizar, earthquake, architecture, mosque, wall, figurines, peasants .

KIRISH. (INTRODUCTION)

Buxoro dunyoning eng qadimiy shaharlarining biri deb hisoblanadi. Buxoroda o'zgarmagan holda avlodlardan avlodga yetib kelayotgan IX-XX asrlar davomida qurilgan tarixiy va arxitektura yodgorliklari saqlanib kelmoqda. Bular ko'pgina shahar mehmonlarining diqqatini o'ziga jalb etadi. Tarix- tilsim. Ne-ne davrlar o'tsada insoniyat oldiga yangi- yangi savollarni qo'yib kelaveradi. O'zbekistonni, xususan, Buxoroni o'tmish sir-sinoatlarga boy shahar, deb atash mumkin.

Tarixiy obidalar qurilishi arxitekturasini me'moriy xazina sifatida ming yillik tarixdan so'zlaydi. Ularning bugunga qadar mavjudligi siri hech shubhasiz, mohir usta me'morlarning bilimi, aql-zakovati, imoratlarda ishlatilgan qurilish ashyolari natijasidir. Bu me'moriy inshootlar qatoriga Mag'oki Attor inshootini ham qo'shish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Bu davrda Buxoroda o'ziga xos madaniyat shakllangan bo'lib, bu madaniyat ta'siri madrasa, masjid va boshqa inshootlar qurilishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shu inshootlar qatoriga Mag'oki Attor masjidini ham qo'shish mumkin. Shaharning markazida Shoxrud kanalining yaqinida joylashgan bu antiqa obida Eski shahar hududidagi boshqa binolardan ajralib turadi va juda qadimiyroqdir. Arxeolog olimlarimiz tomonidan Buxoroning qadimiy shahriston qismi allaqachon aniqlangan. Lekin shaharning eng qadimiy markazi shahriston emas, mana shu masjid atrofidir. Xullas, ushbu maqolada qadimgi va hozirgi davrda yaratilgan adabiyotlardan foydalanilib. Mag'oki Attor tarixi o'rganildi va maqola boyitildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Mazkur maqola qadimda qurilgan dastlab otashparastlar ibodatxonasi keyinchalik esa madrasa vazifasini bajargan inshoot to'g'risidadir. Maqolada shu davrning tarixiy tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayangan holda yaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Oldingi Fayzulla Xo'jayev nomi bilan atalgan xiyobon bo'ylab sayr qilsak, nigohingiz beixtiyor unga o'zgacha tarovot bag'ishlayotgan orasta obidaga qadaladi. Bu Mag'oki Attoron masjididir. Uning bunyod etilishi tafsiloti g'oyat boy madaniy tariximizning tubiga borib taqaladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mag'oki Attoron yodgorligi qadimgi davlatchilik hamda shahar madaniyatiga oid noyob ma'lumotlarni o'zida saqlab kelmoqda. Buxorodagi ushbu me'moriy yodgorlik shahar markazida joylashgan bo'lib, ilgari attorlar rasmasi o'rnida qurilganligi tufayli Attoron masjidi deb atalgan [2]. Qani endi fantast yozuvchilar tafakkurining mahsuli bo'lgan "vaqt mashinasi" haqiqatga aylansa-yu, u bizni o'z qanotida minglab burungi zamonga safar qildirsa. O'shanda biz bu osori-atika atrofidagi g'aroyib bozorning xaridori bo'larmidik. Biroq saqlanib qolgan tarixiy asarlar, arxeologik topilmalar ham bu to'grisida ancha-muncha ma'lumot berishga qodir.

Uzoq o'tmishda bu atroflar keng tekislik bo'lgan. Maydon yonidan to'g'ri oqib o'tgan Ro'dizar chor atrofga halovatli salqinlik bag'ishlab, yashillikka burkagan [3]. Mag'oki Attoriy masjidi o'rnida arablar istilosigacha Mox(Oy) bozori bo'lgan, bu yerda but, dorivor va ziravorlar bilan savdo qilingan, otashparastlar ibodatxonasi ham shu yerda bo'lgan [3]. Buxoroning mashhur tarixchisi Muhammad Narshaxiy o'zining Buxoro tarixi kitobida quyidagilarni bayon qiladi: Buxoroda bir bozor bor ediki, uni Bozori Mox Ro'z der edilar, Bu yerda yiliga ikki marta bozor bo'lar va butlar sotilar edi. Uning o'rnida XII asrda qurilgan masjid mag'ok, ya'ni chuqurlikda

deb nom olgan, chunki o'sha paytda madaniy qatlamlar masjidning yarmisigacha kelgan [3]. Arablar istilosigacha masjidning oldida Oy bozori bo'lgan va bu joyda dorivor va ziravorlar bilan savdo qilinganlari uchun masjid attori nomini olgan, chuqurlikda joylashgani uchun mag'ok, ya'ni chuqurlikda deb nomlangan. O'n asr davomida arxitektura obidasi atrofida madaniy qatlamlar paydo bo'lgan va masjid olti metr chuqurlikda qolgan [4].

Buyuk Tarixnavis Muhammad Narshaxiy Abdul Hasan Nishopuriyning "Xazoyin-ul-umum" asariga tayanib, qadim zamonlarda buxoroliklar otashparastlik diniga sajda qilganliklarini aytadi. O'shanda har bir xonadon baxt va ma'murchilik ma'budasi bo'lgan o'z sanami-Anaxitaga sig'ingan [5]. Zodagon dehqonlar uning haykalchasini ko'shklarining peshtoqiga, kambag'allar uylarining to'riga yasatib qo'yganlar. Bu sanamlar esa mana shu joyda o'tkaziladigan gavjum bozorda xarid qilinar ekan [4]. Voqeanavisning naql etishicha, o'sha davrda shohlik qilgan Mox bozorning to'riga taxtini qo'yib savdoni shaxsan nazorat qilgan. Eng usta kulol va o'ymakorlar podshohning farmoniga binoan yil bo'yi bunday sanamlarni yasab, bozor uchun g'amlar ekanlar. Bozorda o'n ming do'kon bo'lib har safar 50 ming dirhamlik savdo qilingan. Podshoh savdo-sotiqni yanada rivojlantirish maqsadida bu yerda otashparastlar butxonasini qurdirgan [2]. Tabiiyki, arab istilosidan keyin butxona ham bozor ham yo'q qilib tashlangan. Chunki arab musulmonlari nasroniylar va yahudiylarga yaxshi munosabatda bo'lib, butparast va otashparastlar shavqat qilmas edilar.

Bunday xalqlar yovvoyi hisoblanar edi. Arxeologlar vohamizning qaysi bir manzilgohida qazish ishlarini olib borsalar, tez-tez sopol yohud yog'och haykalchalarga duch keladilar. Negadir ularning boshi kesib tashlangan. Balkim bu arab istilosi oqibatidir. Zero, islomda jonli mavjudot qiyofasini aks ettirish man etilgan [4]. Balkim o'sha zamonda yil davomida saqlangan ma'buda vazifasini bajarib bo'lgach, shunday holda yerga ko'mish taomili bo'lgandir. 30-yillarning o'rtalarida taniqli arxeolog Shishkin rahbarligidagi olimlar masjid atrofida izlanishlar olib borib, qadimiy tarixchilar haqiqatni yozishganini topilgan ashyolarga tayanib isbotlashdi [2]. Buning uchun arxeologlar tuproqqa ko'milib yotgan binoning eng qadimiy qismi-janubiy peshtoq ostini 6 metr chuqurlikda qazishdi. Qazilmalar natijasida masjid ostida otashxona qoldig'i topildi [4]. Adabiyotdan ma'lum bo'lishicha, masjid o'rniga o'tga sig'inuvchilarning otashgohi bo'lib u keyinroq masjidga aylantirilgan. Masjid atrofida daraxtzor bo'lgan, ularning tagida yilida ikki marta bozor o'tar ekan.

XII asrda qurilgan binodan masjidning janubiy fasadidagi peshtoq saqlanib qolgan Ushbu peshtoq yodgorlikning badiiy qimmatga sazovor bo'lgan asosiy bo'lagidir. Peshtoqning gul ustunlari qirrador g'ishtin tasmalar bilan o'ralgan [4]. Peshtoqning naqshlari katta mohirlik bilan ishlangan Peshtoqda guldor sopol, geometrik shakldagi naqsh, mayda o'ymakorlik bezaklarni ko'rish mumkin. 1546-1547 yillarda masjid qaytadan qurilgan. Buning to'g'risida sharqiy peshtoqdagi yozuvdan o'qish mumkin. 1934 yilda janubiy peshtoq asrlar davomida obida atrofida paydo bo'lgan madaniy qatlamdan qazib olindi va 1939-1940 yillarda ta'mirlab mustahkamlandi. XII asrda qurilgan masjid ostonasigacha zinapoya qurildi [4]. Masjid atrofidagi maydon tozalanib bog'ga aylantirildi. 70- yillarda buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning 1000 yillik yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan obidani qayta ta'mir etishga kirishildi. Shunda bir guruh buxorolik tadqiqotchilar me'morlik yodgorligi atrofini 7 metr qalinlikdagi tuproqdan tozalab, bino poydevori ostida quduqlar qazishdi. Buning natijasida turli davrlarda obida o'rnida ustma-ust uchta bino barpo etilgani aniqlandi.

Eng pastda qadimiy otashparastlar butxonasining uch metrlik pasxa devori ochildi. Keyingi devor pishiq g'shtdan qurilgan dastlabki masjidning qoldig'i ekan. Uni Qutayba ibn Muslim otashxonani vayron qilib o'rniga qurdirgan va Mag'oki Attoron, ya'ni chuqurlikdagi bozor deb atagan. Buxoroliklar orasida Mag'oki Attoron masjidi xususida shunday bir rivoyat mavjud. Xo'jai Xizr bir kuni peshin namozini Buxorodagi Mag'oki Attori masjidida o'qir ekan. Bir kuni namoz o'qiydiganlar orasida Xo'jai Xizr haqidagi gap bo'lib qoladi [4]. Shunda ular orasidagi bir chol: -Men har kuni besh vaqt namozni shu masjidda o'qiyman, lekin biror marta ham Xizrni ko'rganim yo'q, - debdi. Bu gapni eshitib turgan bir yigit: - Siz qirq kun bu masjidda hammadan oldin kelib, hammadan keyin chiqing, shunda Xizrni ko'rish sharafiga muyassar bo'lasiz,-debdi. Chol o'ttiz to'qqizinchi kuni masjidda bir yigit bilan birga qolibdi. Yigit cholga masjid eshigidan chiqish uchun yo'l beribdi va choldan necha yoshga kirganligini so'rabdi. Chol: - Sakson besh yoshga kirdim, - deb javob beribdi. Chol ham yigitdan necha yoshga kirganligini so'rabdi. Yigit cholga: - Necha yoshga kirganligimni bilmaymanu, lekin Buxoro yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganligini, bu masjid daryoning mag'oki, ya'ni eng chuqur joyida bunyod bo'lganligini ko'rganman, - debdi. Chol shuncha ko'p umr ko'rgan kishini ko'rish niyatida orqasiga o'girilsa, yigit g'oyib bo'lgan ekan. Shundagina chol bu yigit Xizr ekanligini anglab yetibdi va u bilan bafurja suhbatlasha olmaganidan afsuslanibdi. Albatta bu rivoyat yoki afsona bo'lishi mumkin. Lekin har qanday rivoyat zahirida ham bir oz bo'lsada haqiqat bo'ladi. Chunki Buxoroni azaldan Xizr nazar karda deb kelishgan [4].

Masjid XII asrda qayta bunyod etildi. Obidaning janubiy peshtoqi mana shu davrdan zamonamizgacha omon yetib keldi. Masjid ichiga kirib borsangiz, saqlanib qolgan ikki qo'sh ustun qoldiqlarini ko'rasiz. Obidaning XII asrdan qolgan mana shu peshtoqida o'sha davrda yuzaga kela boshlagan sopol badiiy o'ymakorligi, sirlangan, pardozli g'ishlarni zeb berib terish kabi uslub namunalarni ko'rasiz [6]. Bu peshtoqning yaratilish maqomi Buxoroda Islomgacha bo'lgan fors me'morlik san'at namunalarni eslatadi. Shunga asoslanib, tadqiqotchilar eng qadimiy masjid binosi Sant-Peterburgdagi Ermitajda qo'yilgan Sosoniylar davriga mansub laganda aks ettirilgan feodal qasrga monand bo'lgan, degan fikrni bildirishadi [4].

Masjidning sharqiy peshtoqi va butun qolgan qismi Ubaydulloxon davrida, XVI asrda barpo etilgan. Amir Toqi Sarrofon va Toqi Telpakfurushonni qurish paytida obidani ta'mirlashga buyruq bergan. O'sha davrning eng mohir ustalari unga sayqal berishgan. 1860 yilda bo'lib o'tgan qattiq zilzila osori atiqaga katta shikast yetkazdi. Uning qo'sh gumbazi quladi va XX asrda qayta qurildi [6]. Shunday qilib, bu tarixiy yodgorlik afsonaviy Samandar qushidek vayronalardan qayta va qayta qad ko'tarib, go'zalligi bilan hammani maftun etdi. Obida turli zamonlarda mansub me'morlik uslublaridan iborat yagona majmuadir. 70- yillar oxirida yodgorlik taniqli me'mor Filimonov loyihasi asosida tubdan ta'mir etildi. Sayqal berib, pishiq g'ishtdan olti burchakli shaklda bunyod etilgan qo'sh gumbazlar unga betakror chiroy kasb etdi. Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Aminjon Salomov rahbarligidagi ta'mirlovchilar g'oyat murakkab vazifasining uddasidan chiqib, yodgorlikning bundan to'rt asr oldingi qiyofasini tikladilar. Endilikda tarixi qayta tiklangan bu noyob yodgorlik avlod-ajdodlarimiz me'morlik san'atining mangu boqiylikidan dalolat berib, qadimiy Buxoromiz husniga xoldek yarashib turibdi.

Mag'oki Attoron masjidi Toqi Sarrofon va Toqi Telpakfurushon bilan birga yaxlit bir kompleksni tashkil etadi. Masjid yonidagi yaqinda ochilgan eski hammom qoldiqlari ham go'shaga ajiblik va g'aroyiblik baxsh etib turibdi [4]. Buxoro noyob obidalar va san'at

asarlarining ijodkori bo'lgan me'moru quruvchilar, xalq ustalariyu rassomlar necha-necha avlodlari yorqin ijodiy g'oyalarining o'ziga xos majmuasidir [7]. Ilgari bu mavze Fayzulla Xo'jayev nomli xiyobon deb atalardi bu haqida ham yuqorida aytib o'tdik. Bugungi kunda ushbu obida ichida gilamlar muzeyi hamda ko'rgazmasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Buxoro davlat badiiy-me'morchilik muzey-qo'riqxonasi gilamlar fonida saqlanayotgan 104 ta asosiy eksponatlarning 30 tasi ekspozitsiyaga qo'yilgan va namoyish etilmoqda [4]. Ular orasida XIX asr boshlarida tayyorlangan chet elning xitoy, turkman, arman, eron mintaqamizning esa surxon, qashqar, nurota gilamlari alohida ajralib turadi. Bugun ushbu mo'jaz maskan nafaqat buxoroliklarning, balki barcha yurtdoshlarimizning ajoyib ziyoratgohlaridan biriga aylanib qolgan. Buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilm-ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo'lidan darak beradi [1].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tarix o'tmishdan qolgan va insoniyat xotirasida saqlangan, so'z san'ati va imlo bilan ifodalangan, tahliliy tanqid ostida olingan bir yoqlama bo'lmagan xolisona fikrlar bayoni bo'lmog'i darkor. Tarixning asosiy ijodkori xalqdir, ammo uni yaratishda ilohiy va tarixiy shaxslarning roli va o'rni shak-shubhasizdir, buni inkor etish ham tarixda bir yoqlama qarashga olib keladi. Maqolamizning asosiy mavzusi bo'lgan Mag'oki Attor masjidi o'ziga xos tarixga egadir, Shunday qilib bu inshootni qurilish tarixi hamda o'tmishda u bilan bog'liq rivoyat yoki afsonalarni qisqacha bo'lsada bilib oldik. Shuni yana bir marta aytish mumkinki Mag'oki Attor masjidi Buxorodagi ilk qurilgan inshootlardan biridir, hozirgi kunda ham Buxorodagi boshqa inshootlar bilan birgalikda o'ziga xos uyg'unlikni ko'rsatib kelmoqda.

References:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q – Toshkent. 1998 – B 12.
2. Muiniy R. Buxoroning me'moriy yodgorliklari – Buxoro. 2006 – B 14.
3. Naimov N. Buxoroyi Sharif – Buxoro. 1997 – B 7.
4. Narshaxiy Buxoro tarixi - Toshkent. 1991 – B 10.
5. Bobojonov Sh. Sharif shahar yodgorliklari - Buxoro. 2017 – B 37.
6. Buxoro Sharq durdonasi - Toshkent – 1997.
7. Yo'ldashev Buxoro shahri va uning atrofidagi ziyoratgohlar tarixi – Buxoro. 2001.
8. Jumayeva Nilufar Axmatovna Quyi Zarafshon vohasida ziroatchilik homiysi- Bobodehqon bilan bog'liq urf-odat va marosimlar (XIX asr oxiri XX asr boshlari. UDK:94(076.1)